

XORIJIY XOM-ASHYO VA MATERIALLARNING BOJXONA HUDUDIDA QAYTA ISHLASHIGA OID BOJXONA TARTIB-TAOMILLARINI SODDALASHTIRISH

Mamajonov Oybek. Bojxona qo'mitasi mas'ul xodimi.

Tel: +998934618073 E-mail: oybek93@bk.ru

Annotatsiya: Mazkur maqola xorijiy xom-ashyo va materiallarning bojxona hududida qayta ishlash jarayonlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish masalalarini ko'rib chiqadi. Ushbu tadqiqotda xorijiy mahsulotlarning bojxona hududida qayta ishlanishi jarayonida yuzaga keladigan administrativ to'siqlar va kechikishlar tahlil qilinadi. Bojxona jarayonlarining soddalashtirilishi va avtomatlashtirilishi, shu bilan birga, xavfsizlikni saqlash va moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilashga qanday ta'sir ko'rsatishi, ayniqsa, iqtisodiy o'sishni tezlashtirish va xalqaro savdoni rivojlantirish uchun muhimdir. Maqola bojxona va soliq tizimlarining optimallashtirilishi bo'yicha amaliy takliflar, shuningdek, ushbu sohada xalqaro tajriba va uning O'zbekistonga tatbiq etilishi bo'yicha yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqot natijalari, xom-ashyo va materiallarni qayta ishlashni samarali tashkil etish uchun bojxona tartib-taomillarini soddalashtirishni ta'minlashga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: xorijiy tovarlarni qayta ishlash, bojxona hududi, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, bojxona to'siqlari, administrativ tartib-taomillar, bojxona tartib-taomillarini avtomatlashtirish, xalqaro savdo, soliq tizimlarini optimallashtirish, iqtisodiy o'sish, xalqaro tajriba, bojxona va soliq islohotlari, tovarlar va materiallar, bojxona xavfsizligi, tartib-taomillarni soddalashtirish strategiyalari, tashqi savdoning rivojlanishi.

УПРОЩЕНИЕ ТАМОЖЕННЫХ ПРОЦЕДУР ПРИ ПЕРЕРАБОТКЕ ИНОСТРАННЫХ СЫРЬЕВЫХ ТОВАРОВ И МАТЕРИАЛОВ НА ТАМОЖЕННОЙ ТЕРРИТОРИИ

Аннотация: Данная статья посвящена изучению процесса переработки иностранных сырьевых товаров и материалов на таможенной территории, а также вопросам упрощения таможенных процедур. В исследовании анализируются административные барьеры и задержки, возникающие в процессе переработки иностранных товаров на таможенной территории. Упрощение и автоматизация таможенных процедур, а также сохранение безопасности и улучшение финансовых показателей имеют важное значение для ускорения

экономического роста и развития международной торговли. В статье представлены практические рекомендации по оптимизации таможенной и налоговой систем, а также подходы, основанные на международном опыте и его применении в Узбекистане. Результаты исследования имеют большое значение для разработки стратегий, направленных на обеспечение эффективной организации переработки сырья и материалов посредством упрощения таможенных процедур.

Ключевые слова: переработка иностранных товаров, таможенная территория, упрощение таможенных процедур, таможенные барьеры, административные процедуры, автоматизация таможенных процедур, международная торговля, оптимизация налоговых систем, экономический рост, международный опыт, таможенные и налоговые реформы, сырьевые товары и материалы, таможенная безопасность, стратегии упрощения процедур, развитие внешней торговли.

SIMPLIFICATION OF CUSTOMS PROCEDURES FOR THE PROCESSING OF FOREIGN RAW MATERIALS AND GOODS ON THE CUSTOMS TERRITORY

Abstract: This article is dedicated to studying the process of processing foreign raw materials and goods on the customs territory, as well as the issues of simplifying customs procedures. The research analyzes the administrative barriers and delays that arise in the process of processing foreign goods on the customs territory. Simplification and automation of customs procedures, as well as maintaining security and improving financial indicators, are crucial for accelerating economic growth and developing international trade. The article presents practical recommendations for optimizing customs and tax systems, as well as approaches based on international experience and their application in Uzbekistan. The results of the study are significant for developing strategies aimed at ensuring the effective organization of raw material and goods processing through simplifying customs procedures.

Key words: processing of foreign goods, customs territory, simplification of customs procedures, customs barriers, administrative procedures, automation of customs procedures, international trade, optimization of tax systems, economic growth, international experience, customs and tax reforms, raw materials and goods, customs security, strategies for simplifying procedures, development of foreign trade

I.Kirish (Introduction)

Hozirgi jahon iqtisodiyotiga integrallashuv jarayonida O'zbekistonda olib borilayotgan bozor islohotlari tadbirkorli subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatni

amalga oshirish mexanizmida tub o'zgarishlar qilinishini talab etmoqda. Ushbu jarayonni amalga oshirish bojxona organlariga ularning vakolatlaridan kelib chiqqan holatda bir qancha vazifalarni yuklaydi.

Integratsion jarayonlar, kooperatsiya va ishlab chiqarishni ixtisoslashuvi natijasida tashqi iqtisodiy bitimlarning o'sishi bilan iqtisodiy rejimlar paydo bo'ldi, ular orasida O'zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan yoki undan olib chiqilayotgan tovarlarga nisbatan bojxona to'lovlari bo'yicha muayyan imtiyozlar berish imkoniyati mavjud qayta ishlash bojxona rejimlarining o'rni alohida. Qayta ishlash bojxona rejimlarining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi asosiy o'rni, korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlarini maksimal sarflagan holda yangi ish o'rinlari yaratish va aholini ish bilan ta'minlashda namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar Aholi bandligi va daromadlarini oshirishga har tomonlama ko'maklashish va ularning turmush tarzini yaxshilashga qaratilmoqda. Chunonchi, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, —...biz yangi ish o'rinlarini yaratadigan tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularni yelkamizda ko'tarishimiz kerak.

Hozirgi kunda qayta ishlash bojxona rejimlari o'z vazifasini to'laqonli amalga oshirmasligi ularni tartibga soluvchi huquqiy baza takomillashmagani, bojxona protseduralarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risidagi xalqaro konvensiya talablariga to'la javob bermasligi hamda xalqaro amaliyotga ega emasligi bilan izohlanadi.

Qayta ishlash rejimlari talablarini soddalashtirish va optimallashtirishni tadqiq etishda jahon tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi. Qayta ishlash rejimlarini qo'llash mexanizmini qiyoslash metodi orqali tadqiq qilish ushbu rejimlar rivojlanishining zamonaviy tendensiyalariga obyektiv baho berish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Hozirgi kunda qayta ishlash bojxona rejimlari o'z vazifasini to'laqonli amalga oshirmasligi ularni tartibga soluvchi huquqiy baza takomillashmagani, bojxona protseduralarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risidagi xalqaro konvensiya talablariga to'la javob bermasligi hamda xalqaro amaliyotga ega emasligi bilan izohlanadi.

Qayta ishlash rejimlari talablarini soddalashtirish va optimallashtirishni tadqiq etishda jahon tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi. Qayta ishlash rejimlarini qo'llash mexanizmini qiyoslash metodi orqali tadqiq qilish ushbu rejimlar rivojlanishining zamonaviy tendensiyalariga obyektiv baho berish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Dunyo miqyosidagi globallashtirish jarayoni bilan bir qatorda, rivojlanish darajasi bir biriga yaqin bo'lgan mamlakatlarning savdo-iqtisodiy birlashuvi, ularning mintaqalashuv jarayoni ham mavjud.

Ushbu jarayon jahon hamjamiyatining uzoq muddatli, strategik manfaatlari va milliy iqtisodiyotlarning hozirgi, qisqa muddatli manfaatlari qarama-qarshiligi bilan izohlanadi, chunki turli davlatlarning tashqi savdo va siyosiy rivojlanishining obyektiv imkoniyatlari har xil shaklda shakllangan.

Globallashtirish mahalliyashtirish ishlab chiqaruvchilarning mijozlari qaysi davlatda bo'lishidan va milliy qadriyatlaridan qat'iy nazar ular bilan samarali ishlashni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Mahalliy bozorlarda mahalliyashtirishdan foydalangan transmilliy korporatsiyalarning muvaffaqiyatlari ushbu konsepsiyaning hayotiyligini tasdiqlaydi.

Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimini, paydo bo'lish shart-sharoitlarini, qo'llash amaliyotini, shuningdek rivojlantirish va takomillashtirish usullarini o'rganish uni kompleks tizim sifatida ko'rib chiqishni taqozo yetadi. Bugungi kunda iste'mol tovarlari bozorida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar uchun buyurtmalarni qayta ishlovchi korxonalar orqali bajarish keng tarqalgan va rivojlanayotgan yo'nalishlardan biridir. Ushbu yo'nalish o'z ishlab chiqarishdan voz kechish va savdo va marketingga e'tibor qaratish bilan paydo bo'ldi. Qayta ishlash arzon ishchi kuchi bo'lgan mamlakatlar (Xitoy, Meksika), shuningdek, iqtisodiyoti rivojlangan va turmush darajasi yuqori bo'lgan davlatlar (AQSH, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari) tomonidan qo'llaniladi. Bojxona protseduralarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risidagi xalqaro konvensiya qayta ishlash bojxona rejimlaridan faol foydalanishni tavsiya qiladi. Qayta ishlash bojxona rejimlaridan foydalanish davlatlarning tarixiy rivojlanishi va iqtisodiy sharoitlariga chambarchas bog'liqdir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qayta ishlashdan foydalanish chet el sarmoyasini jalb qilish, arzon ishchi kuchi, soliq imtiyozlari va mehnat qonunchiligining harakatlari tufayli yuzaga keladi. Rivojlangan mamlakatlarda esa qayta ishlash rejimi notarif to'siqlarni chetlab o'tishga imkon beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bojxona hududida qayta ishlashning bojxona rejimini qo'llashni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ushbu muammoni o'rganish uchun terminologik va uslubiy apparatlarni shakllantirgan. Bojxona rejimini qo'llashning asosiy shartlari va uning iqtisodiy mohiyati aniqlandi. Hozirgi kunda xorijiy tadqiqotchilar muammoni ikki jihatdan ko'rib chiqmoqdalar:

Birinchi yo'nalishda (J. Ber, A. Shrank, G. Gereffi) qayta ishlash rejimlarini qo'llaydigan kompaniyalarning korporativ tuzilishi, modellari va siyosati ko'rib chiqiladi, ikkinchisida (F. Lemoyne, M. Kurtz, A. Gurman) bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimini qo'llashni davlat va bojxona ma'murchiligi tomonidan tartibga solishga e'tibor qaratiladi.

Bunda bojxona rejimini qo'llash uchun qonunchilik bazasi, soliq imtiyozlari tizimi, investitsiya muhiti, shuningdek, davlat o'z hududida qayta ishlash rejimlarini qo'llashni rag'batlantirish vazifalarini o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, birinchi yo'nalish rejimning iqtisodiy funksiyasi va mohiyatini o'rganish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi - makro darajada strategik rivojlanishning tashkiliy asoslari va muammolarini o'rganish bilan bog'liqdir.

Birinchi yo'nalishni ko'rib chiqishda, biz firmalarning shartli ravishda ikki sohaga - ishlab chiqarish va savdoga bo'linishini eslatib o'tamiz. Globallashuv jarayoni tarixining tahlili shuni ko'rsatadiki, qayta ishlash ikkala soha kompaniyalari ham qo'llab-quvvatlagan. Ammo ular uchun natijalar turlicha yedi. Natijada ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqarish sektori uchun) va buyurtmachi tomonidan boshqariladigan (savdo sektori uchun) ishlab chiqarish zanjirlarining ikkita modeli shakllantirildi.

Birinchi model avtomobil va kompyuter, samolyotsozlik va og'ir muhandislik kabi kapital va bilim talab qiladigan sohalar uchun xosdir.

Ushbu turdagi zanjirlarda moddiy, moliyaviy va axborot oqimlarini tashkil qilishda asosiy rol yirik transmilliy korporatsiyalarga tegishli edi. Ishlab chiqaruvchi tomonidan boshqariladigan zanjirlarda bozorga yangi firmalar kirishi uchun jiddiy to'siqlar mavjud bo'lib, bunga birinchi modelni ikkinchisidan ajratib turadigan mezon sifatida qarashimiz mumkin. Ushbu modeldan asosan oligopolistik firmalar foydalanishadi.

Asosiy o'rinni uchinchi mamlakatlarda ishlab chiqarishga buyurtma beruvchi chakana sotuvchilar egallaydigan ikkinchi modelda asosan kiyimkechak, poyabzal va maishiy elektronika kabi mehnat talab qiladigan sohalarida tovarlar yaratiladi. Uchinchi mamlakatlarda qoida tariqasida oddiy yakunlash operatsiyalari amalga oshiriladi. Buyurtmachilar tomonidan boshqariladigan bozorlarda yuqori raqobat va markazlashmagan ishlab chiqarish amal qiladi. Ishlab chiqarish sohasidagi asosiy qarorlar uni qayerda, qachon va qanday joylashtirish kerakligi, shuningdek har bir bosqichda qanday foyda keltirishini hisobga olgan holda qabul qilinadi. Ushbu modelda bojxona hududida qayta ishlash rejimlari keng qo'llaniladi.

Birinchi modelda asosiy harakatlar ishlab chiqarish bosqichida, ikkinchi modelda esa yakuniy bosqichda - sotuvda amalga oshiriladi. Shunga qaramay, ushbu modelning eng muhim elementi arzon ishchi kuchi bo'lgan mamlakatlarda qayta ishlashdir. Ishlab chiqarish zanjiri yengil sanoat misolida eng muvaffaqiyatli tarzda namoyish etilmoqda, chunki bugungi kunda ishlov berish ko'p mehnat talab etishi tufayli qayta ishlash rejimlari ushbu sohada keng qo'llaniladi. Bundan tashqari, tikuvchilik va to'qimachilik korxonalari o'rtasida juda ko'p aloqalar mavjudligi, umuman olganda, bu jarayon haqida yanada to'liqroq tasavvurga ega bo'lish uchun ular bilan o'zaro aloqada bo'lgan ko'plab boshqa yo'nalishlarni ko'rib chiqishga imkon beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qayta ishlash bojxona rejimi tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi kuchli vositalardan biridir, shuning uchun qayta ishlash rejimini qo'llash ustidan nazoratning sustligi davlatning iqtisodiy manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin. Shuning uchun ushbu rejimni qo'llashdan oldin vakolatli organdan tovarlarni qayta ishlash rejimiga rasmiylashtirish va foydalanish bo'yicha barcha zarur ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan ruxsatnoma olish zarur.

O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi (keyingi o'rinlarda - Bojxona kodeksi) bilan tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirish bojxona organining tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash uchun beradigan ruxsatnomasi asosida amalga oshirilishi belgilangan. Biroq ushbu talab, fikrimizcha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi PF-5414-son Farmoni bilan 2018-yil 1-iyuldan boshlab tovarlarni bojxona rejimlariga joylashtirishda bojxona organlari tomonidan beriladigan ruxsatnomalarning bekor qilinishi bilan o'z ahamiyatini yo'qotdi.

Har bir qayta ishlash bojxona rejimlari o'z xususiyati va bajaradigan vazifasiga ko'ra har xildir.

Jahon iqtisodiyotining tizim sifatidagi faoliyati tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillarining harakati bilan bog'liq. Ushbu bog'liqlik asosida xalqaro iqtisodiy munosabatlar yuzaga keladi. Ishlab chiqarish omillarining harakati xalqaro iqtisodiy munosabatlarning xalqaro kapital harakati, xalqaro ishchi kuchi va texnologiyalardan foydalanishda namoyon bo'ladi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda qatnashayotgan mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy ko'rsatkichlari tahlili natijalariga ko'ra shartli ravishda rivojlangan, rivojlanayotgan va o'tish davridagi mamlakatlarga bo'lishimiz mumkin. Shundan kelib chiqqan holda rivojlanayotgan va o'tish davridagi mamlakatlar rivojlangan mamlakatlarda mavjud ishlab chiqarish quvvatlariga, texnika-texnologiyasiga ehtiyoj sezadi. Ushbu vaziyatda bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimisiz ko'zlangan yuqori darajadagi samaradorlikka erishib bo'lmaydi.

Tayyor mahsulot – qayta ishlash mahsuloti, rejim talablariga asosan, O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga qaytarib olib kelinishi kerak.

Bojxona kodeksining 44-moddasida tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash talablari va shartlari o'z aksini topgan.

Quyidagi hollarda bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimidan foydalanish mumkin emas:

- agar tovarning olib chiqilishi to'langan bojxona bojlari va soliqlar summasini qaytarishni, ulardan ozod qilishni yoxud olib chiqishda taqdim etiladigan to'lovlarni undirishni talab qilishga asos bo'lsa;

- bojxona to'lovlarini to'lashdan shartli ozod etilgan holda erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga ilgari joylashtirilgan tovarga nisbatan ushbu shartli ozod etishning amal qilish muddati tugaguniga qadar, bundan shunday tovarni ta'mirlash, shu jumladan uni tiklash, modernizatsiya qilish, uning buzilgan yoki eskirgan tarkibiy qismlarini (elementlarini) almashtirish yoki tiklash, nuqsonlarini bartaraf etish uchun olib chiqish mustasno.

Bojxona kodeksining 43-moddasida tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash operatsiyalari ro'yxati keltirilgan. Unga ko'ra tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash operatsiyalari quyidagilardan iborat:

olib chiqilgan tovar uning dastlabki xossalarini va individual ko'rsatkichlarini o'zgartirib, lekin qayta ishlash mahsulotida uni identifikatsiyalash imkonini beruvchi xususiyatlarini saqlagan holda mazkur tovarni bevosita qayta ishlash yoki unga ishlov berish, bundan qayta ishlash uchun olib chiqilgan tovarga ekvivalent bo'lgan tovarni qayta ishlash natijasida olingan yoki qayta ishlash uchun ishlab chiqarishning uzluksiz sikllariga taalluqli texnologiya jarayonidan foydalanilayotgan hollar mustasno.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bojxona hududida qayta ishlash rejimini qo'llanilishini soddalashtirish maqsadida 25.04.2022-yilda "Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimi qo'llanilishini soddalashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmoni (PF-115-son) qabul qilindi. Farmonga ko'ra tovarlarning bojxona hududida qayta ishlanganligini ko'rsatuvchi o'zgartirish kiritishlar tovarlarni bojxona hududida qayta ishlash operatsiyalari bo'lib, ular quyidagilar:

olib kirilgan tovarni uning dastlabki xossalari va individual ko'rsatkichlarini o'zgartirib, lekin qayta ishlash mahsulotida uni identifikatsiyalash imkonini beruvchi tovar xususiyatlarini saqlagan holda bevosita qayta ishlash yoki unga ishlov berish;

olib kirilgan tovardan foydalangan holda boshqa tovar tayyorlash, shu jumladan montaj qilish, yig'ish yoki qismlarga ajratish;


tovarni ta'mirlash, shu jumladan uni tiklash va tarkibiy qismlarini almashtirish;

qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarishga ko'maklashuvchi yoki ularning ishlab chiqarilishini yengillashtiruvchi boshqa tovarlardan, agar bu tovarlar qayta ishlash jarayonida to'liq yoki qisman ishlatilsa, xomashyo sifatida foydalanish;

tovarlarni qadoqlash, o'rash (shu jumladan, qayta o'rash), saralash, tozalash, boshqa tovarlarga moslashtirish va uskunalarni modernizatsiya qilishdan tashkil topgan.

Ushbu farmonning yuqoridagi bandidan asosiy maqsad, bojxona hududida qayta ishlash operatsiyalarining sonini oshirish orqali qayta ishlanuvchi tovar turkumlari sonini oshirish hisoblanadi. Lekin, bugungi kunda bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga rasmiylashtirilayotgan tovarlarning turkumlari sonini oshirish

dolzarb muammoligicha qolmoqda. Quyida bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga rasmiylashtirilgan tovarlar to'g'risida batafsil to'xtalib o'tildi (1-rasm).



Yuqoridagi rasmdan ham ko'rinib turibdiki, bojxona hududida qayta ishlash rejimida olib kirilgan tovarlarning katta qismini 47 foizlik ulush bilan bug'doy mahsuloti egallaydi. Keyingi o'rinni yesa 26 foiz ulush bilan samolyotlar ta'miri band etadi. Shu ikki tovardan boshqa barcha tovarlarning ulushi esa 27 foizni tashkil etadi. Ko'rinib turibdiki, qayta ishlash sanoatini diversifikatsiyalash yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar hali o'zining samarasini ko'rsatmadi. Buni bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga olib kirilayotgan tovarlarning import mamlakatlari misolida ham ko'rish mumkin. (2-jadval).

2-jadval

Bojxona hududida qayta ishlash rejimiga rasmiylashtirilgan tovarlar mamlakatlar kesimida

Mamlakat nomi	Statistik qiymati(ming doll)	%larda
Jami	611 169,90	100,00
AFG'ONISTON	301 792,11	49,38
QOZOQISTON	92 356,85	15,11
QIRG'IZSTON	59 590,73	9,75
ROSSIYA	56 915,77	9,31
GRETSIYA	17 479,79	2,86
GERMANIYA	11 706,95	1,92
TURKIYA	8 733,13	1,43

BOSHQALAR	60 012,10	9,82
-----------	-----------	------

Bojxona hududida qayta ishlash rejimiga rasmiylashtirilgan tovarlar import mamlakatlari ichida Afg'oniston 49,38 foiz ko'rsatkich bilan eng yuqori o'rinni egallaydi. Keyingi o'rinlarni mos ravishda Qozog'iston(15,11%), Qirg'iziston(9,75%) va Rossiya(9,31%) band etgan. Mintaqadagi tabiiy resurslarga boy mamlakatlarning ulushi juda past.

Yaratilgan qulay imkoniyatlarga qaramasdan bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga rasmiylashtirilayotgan tovarlar miqyosi sezilarli darajada oshmadi. Bunga sabab bo'lgan omillardan yana biri sifatida hali tadbirkorlar tomonidan ushbu rejim to'g'risida yetarli malumotga ega emaslikni ko'rsatish mumkin. Bojxona hududida qayta ishlash rejimiga rasmiylashtirilgan tovarlar viloyatlar va postlar bo'yicha qaralganda ham o'zgarishlar deyarli sezilmaydi.

Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar bilan bir qatorda hali bartaraf etilishi lozim bo'lgan muammolar yetarlicha. Bular:

1) Tadbirkorlik subyektlari bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimi, uning imkoniyatlari to'g'risida yetarli ma'lumotga ega emas;

2) bojxona kodeksidagi ekvivalent tovarlar va ekvivalent kompensatsiya uchun ko'rsatilgan talablar yetarli darajada aniq va puxta ishlanmaganligi sababli ular bilan bog'liq operatsiyalar amalda uchramaydi ;

3) ayrim tadbirkorlik subyektlarining ushbu rejim imkoniyatlaridan egri maqsadlarda foydalanib, tovarlarni almashtirib qo'yish, qaytarib olib chiqib ketilishi lozim bo'lgan tovarlarni ichki bozorga sotib yuborish holatlari ko'p uchraganligi sababli bojxona organlari tomonidan bu rejimga joylashtirilgan tovarlar ustidan kuchliroq nazorat amalga oshiriladi;

4) bojxona hududida qayta ishlangan tovarlarga kelib chiqish sertifikatini berish uchun O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi yoki u tomonidan vakolat berilgan organ vakolatli organ hisoblanadi. Biroq, ushbu jarayonda tovarlarga kelib chiqish sertifikatini berish uchun asos bo'ladigan tovarlarning yetarli darajada qayta ishlanganlik mezonlari bo'yicha nazorati bojxona organlari tomonidan amalga oshirilishi sababli tadbirkorlar ushbu sertifikatlarni olishda oshiqcha vaqt va mablag' sarflashmoqda;

5) qayta ishlash maqsadida olib kirilgan xom-ashyolardan tayyorlangan tayyor mahsulotlar mamlakat bojxona hududidan olib chiqish jarayonlari ustidan nazorat hali xam avtomatlashtirilmaganligi sababli xodimlar ish samaradorligining tushishiga sabab bo'lmoqda;

6) qayta ishlash mahsulotlarida foydalanilgan xomashyo tovarlarini identifikatsiyalashning murakkabligi;

- 7) qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasini aniqlashning noaniqligi;
- 8) qayta ishlash muddatiga amal qilmaslik.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimida sanoat va qayta ishlash quvvatlaridan to'liq foydalanish, mamlakatga valyuta tushumini oshirish, tayyor mahsulotlar va xizmatlarning eksportini ko'paytirish, mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish, xorijiy ishlab chiqaruvchilar va ularning investitsiyalarini jalb qilish, xalqaro ko'rsatkichlarda O'zbekistonning reytingini oshirish shuningdek, davlat byudjetiga soliq tushumlarining o'sishi uchun zamin yaratadi. Chet el tovarlari bilan bojxona hududida tovarlarni qayta ishlash operatsiyalari amalga oshirilgan taqdirda O'zbekiston tovarlaridan, shu jumladan chet ellik shaxs tomonidan olingan O'zbekiston tovarlaridan bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilmagan holda foydalanishga yo'l qo'yiladi. Buning natijasida foydalanishda bo'lmagan resurslardan samarali foydalanish bilan bir vaqtda O'zbekiston tovarlarining eksporti uchun qulay sharoit yaratiladi.

1)Hududiy bojxona boshqarmalarida bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimi, uning imkoniyatlari to'g'risida tadbirkorlik subyektlarining xabardorligini oshirish bo'yicha amaliy ishlarni jonlantirish;

2)ekvivalent tovarlar sifatida qanday tovarlardan foydalanish kerakligi, ular qanday identifikatsiya qilinishi lozimligi va qancha muddatda ekvivalent tovarlar almashtirilishi lozimligi masalalariga aniqlik kiritish(Hususan rivojlangan mamlakatlardan biri bo'lgan Britaniya tajribasida ekvivalent tovarlardan foydalanishda quyidagi qoidalar mavjud.

Foydalanadigan ekvivalent tovarlar va erkin muomaladagi tovarlar quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha bir xil bo'lishi kerak:

8 xonali TIF TN kodi;

sifati;

texnik xususiyatlari;

Quyidagi o'ziga xos cheklov va taqiqlar mavjud:

Avval import qilingan tovarlarni ekvivalent tovar bilan almashtirish maqsadida qayta eksport qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Agarda olib kirilishi mo'ljallangan xom-ashyo Buyuk Britaniyada mavjud bo'lmasa, Buyuk Britaniyada ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun ekvivalentlikdan foydalanib bo'lmaydi.

Ekvivalentlik tovar yoki unga tenglashtirilgan tovarlar ionlashtiruvchi radiatsiyani o'zida tutgan,pistisid, gibrisid va genetik modifikatsiyalangan yoki genetik modifikatsiyadan o'tgan elementlarni o'z ichiga olgan hollarda qo'llanilmaydi.

Guruch eni va uzunligi mos bo'lishi kerak. Sut va sut mahsulotlari (Sutning quruq moddasi, sut yog'i va sut oqsili) tarkibidagi ekvivalent tovarlar import qilinadigan tovarlardan past bo'lmagan taqdirdagina ruxsat etiladi.

Bug'doy, shakar, jonli hayvonlar va go'sht mahsulotlariga nisbatan ekvivalentlik qo'llanilmaydi.

Ekvivalent tovarlarni mahalliy tovarlar bilan almashtirish muddatlari quyidagicha:

1. Qishloq xo'jaligi tovarlari uchun 3 oy.

2. Boshqa barcha tovarlar uchun 6 oy.

3)ekvivalent tovarlardan foydalanishga ruxsat berish uchun vakolatlarni Vazirlar Maxkamasidan bojxona organlariga o'tqazish;

4)bojxona hududida qayta ishlash rejimida tovarlarga kelib chiqish sertifikatini berish uchun asos bo'ladigan tovarlarning yetarli darajada qayta ishlanganlik mezonlari bo'yicha nazorati bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli qayta ishlangan yangi tovar eksport qilinishida kelib chiqish sertifikatini berish bojxona organlari ixtiyoriga o'tkazish (Bu esa o'z - o'zidan nazorat qiluvchi tashkilotlarining sonini bittaga qisqartirib, tovarlar eksporti uchun sarflanadigan vaqt va xarajatlarni tejalishiga olib keladi);

5)qayta ishlash maqsadida olib kirilgan xom-ashyolardan tayyorlangan tayyor mahsulotlar mamlakat bojxona hududidan olib chiqish jarayonlari ustidan nazoratni to'liq avtomatlashtirish orqali bojxona nazoratida samaradorlikka erishish;

6)qayta ishlash mahsulotlarida foydalanilagan xomashyo tovarlarini identifikatsiyalashning uslubiyotini ishlab chiqish(mavjud imkoniyatlar va xorijiy tajribalar asosida);

7)Bazi tovarlarning qayta ishlash mahsulotlarining tavsiyaviy chiqish normalarini aniqlash ma'lumotlar bazasini shakllantirish(mavjud ma'lumotlar va xalqaro standartlar asosida);

8)Bojxona kodeksida qayta ishlash muddati tugaganda yakuniy bojxona rejimiga olish muddatini aniq belgilash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Innovatsionniye metodi tamojennogo obslujivaniya vneshneekonomicheskoy deyatelnosti//Ucheniye zapiski. Xudjandskiy gosudarstvenniy universitet im. B. Gafurova: Xudjand, 2018. - № 4(47).- S. 69-73. - 0,25 p.l.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, PF–60-son Farmoni.
3. Umaraliyev B. A. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2017-yil. 2 bet.. www.iqtisodiyot.uz

4. O‘zbekiston sanoati 2019–2022. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2023.
5. Rashidova F.Sh. Inostranniye investitsii v razvitii predprinimatelstva–kak vajniy faktor formirovaniya srednego klassa v Uzbekistane //Central asian journal of social sciences and history. – 2021. – T. 2. – №. 10. – S. 76-86.
6. Eells R. S. F. The Meaning of Modern Business: An Introduction to the Philosophy of Large Corporate Enterprise. – New York: Columbia University Press, 1960. – 427 p.
7. Sifrovizatsiya istoriya, perspektivi, sifroviye ekonomiki Rossii i mira. – URL. <http://www.up-pro.ru/libraru/strategy/tendencii/cyfrovizaciya-trend.html>
8. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 26-apreldagi “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi O‘RQ–683-son qonuni.
9. F.Kotler, G.Armstrong, D.Sonders, V.Veronika “Marketing Essentials”, Per. s angl. 2-ye Yevrop.izd. M.: Izdat.dom “Vilyams”, 1999.
- 10.K.Genroos. Service management and marketing. West Sussex, 2000.
- 11.Mejdunarodniy standart ISO 9004-2:1991. Obshee rukovodstvo kachestvom i elementi sistemi menedjmenta kachestva. Ch. Rukovodyashiye ukazaniya po uslugam /Per. s angl., nauch.red. V.I. Galleev. M.: Vserossiyskiy nauchno-issledovatel'skiy institut sertifikatsii Gosstandarta Rossii (VNIIS), 1996.
- 12.G.Rose., Kortum, P.K., Cherukuri, S., Wool, Z.H., and O'Malley, M.K. “Examining Usability Experiences of Assistive Wearable Devices,” Journal of Design Research